



**№3**

# **MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR**

**ILMIY ELEKTRON JURNALI**



**ISSN: 2181-3965**  
**VOLUME 5**  
**TOSHKENT 2026**

# “MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

**To‘lqin Zakirovich Teshabayev** – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI

**Mehmonov Sultonali Umaraliyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Karimova Komila Daniyarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sindarov Sherzod Egamberdiyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

**Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Pardayev Abdunabi Xoliqovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Kuziyev Islomjon Ne‘matovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Omonov Akrom Abdinazarovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Qongratbay Avezimbetovich** – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

**Jumayev Nodir Xosiyatovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

**Haydarov Nizomiddin Hamroyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raviprakash G. Dani** – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

**Bagautdinova Nailya Gumerovna** – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

**Sharifzoda Mu‘min Mashokir** – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

**Maley Elena Borisovna** – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

**Asif Mahbub Karim** – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





**Piter Xayk** – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

**Yavuz Demirel** – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

**Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich** – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ismanov Ibroxim Nabiyeovich** – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xayriddinov Azamat Botirovich** – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tashnazarov Samiddin Nizamovich** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich** - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

**Yakubova Nargiz Tursunbayevna** – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Mamatov Baxadir Safaraliyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qiyosov Sherzod Uralovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

#### JURNAL TAHRIRIYATI

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

**Avlokulov Anvar Ziyadullayevich** – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li** – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Buxorova Moxira Samandarovna** – muharrir

*O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.*

**“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali**

23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864




**MUNDARIJA**

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmi rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmuratovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





**SOLIQLAR VOSITASIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA BANDLIKNI  
TA'MINLASH ORQALI DAROMADLARNI OSHIRISH HAMDA  
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH MASALALARI**

**Ruziyev G'anisher Usarovich**

*Soliq va soliiqqa tortish kafedrasining katta o'qituvchisi  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*E-mail: g.ruziyev@tsue.uz*

*ORCID: 0009-0008-5695-4846*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta'minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag'allikni qisqartirish masalalari tahlil qilingan. Unda biznesni soyadan chiqarish, aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va tadbirkorlik faoliyatida soliq yukini kamaytirish, ish beruvchilarni ehtiyojmand aholini ishga qabul qilishga rag'batlantiruvchi soliq mexanizmlaridan foydalanish zaruriyati asoslangan hamda taklif etilgan va joriy etilgan soliq imtiyozlarining samaradorligi baholangan.

**Tayanch so'zlar:** aholi, daromad, kambag'allik, bandlik, tadbirkorlik, aylanmadan olinadigan soliq, ijtimoiy soliq, soliq imtiyozlari.

**ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ И СОКРАЩЕНИЯ  
БЕДНОСТИ ПУТЕМ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И  
ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ НАЛОГОВ**

**Рузиев Ганишер Усарович**

*Старший преподаватель кафедры  
Налог и налогообложение*

*Ташкентский государственный  
экономический университет*

*E-mail: g.ruziyev@tsue.uz*

*ORCID: 0009-0008-5695-4846*

**Аннотация.** В данной статье анализируются вопросы повышения доходов и сокращения бедности посредством развития предпринимательства и занятости за счет налогообложения. В основе работы лежит необходимость выведения бизнеса из тени, широкого вовлечения населения в предпринимательство и снижения налоговой нагрузки на предпринимательскую деятельность, использования налоговых механизмов, стимулирующих работодателей к найму нуждающегося населения, а также оценка эффективности предложенных и реализованных налоговых льгот.

**Ключевые слова:** население, доход, бедность, занятость, предпринимательство, налог с оборота, социальный налог, налоговые льготы.

**INCREASING POPULATION INCOME AND REDUCING POVERTY BY  
DEVELOPING ENTREPRENEURSHIP AND PROVIDING  
EMPLOYMENT USING TAXES**

**Ganisher Usarovich Ruziev**

*senior teacher of the department Tax and taxation  
Tashkent State University of Economics*

*E-mail: g.ruziyev@tsue.uz*

*ORCID: 0009-0008-5695-4846*

**Abstract:** This article analyzes the challenges of increasing incomes and reducing poverty through the development of entrepreneurship and employment through taxation. The work is based





*on the need to bring businesses out of the shadow economy, broaden public participation in entrepreneurship, and reduce the tax burden on entrepreneurial activity, using tax mechanisms that incentivize employers to hire those in need, as well as assessing the effectiveness of proposed and implemented tax incentives.*

**Keywords:** *population, income, poverty, employment, entrepreneurship, turnover tax, social tax, tax benefits.*

### **Kirish**

Jahon iqtisodiyotidagi keskin o'zgarishlar va noaniqliklar davom etayotgan bugungi sharoitda aholining daromad manbalarini ko'paytirish, barqaror bandlikni ta'minlash va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish orqali kambag'allik darajasini kamaytirish hamda fuqarolarning turmush sifati va farovonligini yuksaltirish eng muhim dolzarb masalalardan biridir.

“O'zbekiston – 2030” strategiyasida 2030-yilga qadar “daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar” qatoriga kirish, ishsizlik darajasini 4 %gacha (yoshlarda 8 %ga) qisqartirish va “Mutlaq kambag'allikka” barham berish maqsadlari belgilab berilgan. Mazkur maqsadlarga erishishda milliy soliq tizimining ahamiyati yuqori bo'lib, bu vazifalar aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan samarali soliq siyosatini amalga oshirishni taqazo etadi. Shuning bilan birgalikda aholini tadbirkorlikka jalb qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish, biznesni soyadan chiqarishni rag'batlantirish, jismoniy shaxslar uchun qonuniy faoliyatning jozibadorligini oshirishda soliqlarning rag'banlantiruvchi vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada ushbu masalalar aholining tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishni soliqlar vositasida rag'batlantirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Aholi daromadlarini oshirish va ularni rag'batlantirish masalasi iqtisodiy nazariyada ham, amaliy siyosatda ham muhim o'rinni egallaydi. Shu bois, so'nggi yillarda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan soliq siyosatining aholi daromadlariga ta'siri keng miqyosda o'rganilgan. Masalan, A. Smit va D. Rikardo kabi klassik iqtisodchilar o'z asarlarida soliqlarning iqtisodiy faollikka, ishlab chiqarish hajmiga va aholining real daromadiga ta'sirini tahlil qilganlar. Ularning fikricha, soliq siyosati iqtisodiy resurslarni qayta taqsimlash orqali jamiyatdagi tenglikni ta'minlash bilan birga, ishlab chiqaruvchilarning rag'batini saqlab qolishi kerak. Zamonaviy tadqiqotlarda, xususan, J. Stiglits, R. Masgrev, M. Fridman kabi olimlar soliq tizimining ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi o'rni va samaradorligini chuqur tahlil qilgan. Ular soliq siyosati orqali past daromadli aholiga qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar joriy etish, shuningdek, yuqori daromadli qatlamlar uchun progressiv soliqlarni tatbiq etish orqali iqtisodiy tenglikni ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydilar. Mahalliy iqtisodchi olimlar A. Adizov (2004), M. Usmanova (2011), A. Agzamov (2019), A. Bozorov hamda Sh. Qiyosov (2023)larning ilmiy ishlarida aholi daromadlarini soliqqa tortish tartibini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. A. Mamatov (2022) hamda B. Xolmatov (2023) tadqiqotlarida aholi daromadlarini oshirishning mahalliy omillari sifatida bandlik siyosatini takomillashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, raqamli iqtisodiyotga o'tish va soliq imtiyozlarini kengaytirish bilan bog'liq jihatlari yoritilgan.

Yuqorida qayd etilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aholi daromadlarini oshirish uzoq muddatli iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar orqali amalga oshiriladi. Bu islohotlar yangi ish o'rinlarini yaratish, mustaqil bandlik, inson kapitali va tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirishga xizmat qiladigan adolatli soliqqa tortish mexanizmlarini joriy etishga tayanadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotda iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili, guruhlash hamda iqtisodiy-mantiqiy yondashuv va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.






### Tahlil va natijalar muhokamasi

Aholi daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash har qanday davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishishning samarali vositalaridan biri fuqarolarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etishdir. Bu jarayonda soliq tizimi aholini tadbirkorlikka keng jalb etish va ularning faoliyatini rivojlantirishda muhim iqtisodiy vosita hisoblanadi. Adolatli, shaffof va rag'batlantiruvchi soliq siyosati tadbirkorlik faolligini oshiradi, investitsiyalarni jalb qiladi hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli soliq tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borish tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir.

Keyingi yillar davomida mamlakatimizda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, ularga qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish hamda soliq yukini kamaytirishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar natijasida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan yaratilayotgan qo'shilgan qiymatning ulushi iqtisodiyotda kun sayin oshib bormoqda. Jumladan, 2024-yil yakunlari bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan 753 226,9 mlrd so'm miqdorida qo'shilgan qiymat yoki iqtisodiyotdagi yalpi qo'shilgan qiymatning 54,3 foizi yaratilgan. Mazkur ijobiy natijalarga qaramasdan, mamlakatda kuzatilmaydigan (norasmiy va yashirin) iqtisodiyotning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi yuqoligicha qolmoqda. Misol uchun, 2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida kuzatilmaydigan (norasmiy va yashirin) iqtisodiyotning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi 505 650,1 mlrd so'mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 34,8 foizini tashkil etadi. Shundan norasmiy iqtisodiyotning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi 383 643,7 mlrd so'mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 26,4 foizini tashkil etadi<sup>48</sup>.

Agar mamlakatda jami yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarni faoliyat turlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 2021-2025-yillar davomida ularning faoliyat turlari ulushi turlicha bo'lib, chakana savdo va hunarmandchilik sohasidagi yakka tartibdagi tadbirkorlar foizi kamayganligini, maishiy xizmat ko'rsatish hamda boshqa faoliyat turlari sohasidagi yakka tartibdagi tadbirkorlar ulushi oshganligini kuzatish mumkin.



**1-rasm. O'zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlarning faoliyat turlari bo'yicha tahlili, %da<sup>49</sup>**

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning ayrim faoliyat turlari bo'yicha ulushlarining qisqarishi, norasmiy iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yuqori darajada bo'lishligiga ularni soliqqa tortish tizimi ham ta'sir qiladi. Masalan, 2020 yildan boshlab, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soddalashtirilgan tartibda to'lanadigan qat'iy soliq o'rniga qat'iy stavkada daromad solig'ini, shuningdek daromadi yuz million so'mdan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun esa aylanmadan olinadigan soliqning joriy etilishi bir qator o'ziga xos afzalliklariga ega bo'lsa-da, soliqqa tortish amaliyotida ayrim kamchiliklar va muammolarni yuzaga chiqaradi. Jumladan, aylanmadan olinadigan soliq tadbirkorning sof foydasidan emas, balki umumiy tushumi (aylanmasi)dan hisoblanishi va bunda jami daromad soliq bazasi deb e'tirof etiladi. Ikkinchidan,

<sup>48</sup> Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari


<sup>49</sup> Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.





aylanmadan olinadigan soliqda xarajatlar (tovarlar (xom ashyo)ni sotib olish, transport, saqlash, sotish, ijara, kommunal xizmatlar, ma'muriy xarajatlar va b.) chegirib tashlanmaydi. Natijada xarajati ko'p tadbirkor bilan xarajati kam tadbirkor bir xil stavkada soliq to'laydi. Uchincidan, aylanmadan olinadigan soliqning 4 foizlik stavkasi tadbirkorlikning rentabilligi pasroq bo'lgan savdo, vositachilik va ayrim xizmat ko'rsatish sohalarida olinadigan foydaga nisbatan ancha yuqori soliq yukini yuzaga keltiradi. To'rtinchidan, tadbirkor umumiy tushumi (aylanmasi) qancha katta bo'lsa, to'lanadigan soliq ham shunga qarab ko'payishi, shuningdek aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi bo'lish uchun tushum (aylanma) miqdori yuqori chegarasining cheklanganligi natijasida ular tomonidan tushumni yashirishga harakatning paydo bo'lishi hisobiga naqd savdo tushumini yashirish, chek bermaslik, tushumning bir qismini hisobdan tashqarida qoldirishga urinishni ((P2P orqali) keltirib chiqaradi.

Yuqorida keltirib o'tilgan muammo va kamchiliklarni hisobga olgan holda, soliq yukini keskin kamaytirish hisobiga, aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jal qilish, ular uchun qonuniy tadbirkorlik faoliyati jozibadorligini oshirish, ularning ixtiyoriy ravishda rasmiy sektorda ishlashi uchun rag'batlantiruvchi raqobatbardosh va shaffof tadbirkorlik muhitini shakllantirish maqsadida yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasini 1 foizga tushirishni taklif qildik. Natijada O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda O'RQ-1108-son Qonuni bilan Soliq kodeksining 467-moddasiga o'zgartirish kiritilib, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun aylanma soliq stavkasi 4 foizdan 1 foizga pasaytirildi. Mazkur o'zgartirishning yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadiga ta'siri hisob-kitobi quyidagi 2-rasmda keltirilgan.



**2-rasm. Aylanmadan olinadigan soliq stavkasini pasaytirilishining yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlariga ta'siri<sup>50</sup>**

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2025-yilda aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 312,4 ming nafarni tashkil etgan. Ularning aylanmadan olinadigan soliq solinadigan bazasi 2025-yilda (jami daromadi) 2 073,2 mlrd so'mni tashkil qilib, 4 foizlik stavkada jami 82,9 mlrd.so'm miqdorida aylanmadan olinadigan soliq hisoblangan. Ushbu aylanmadan olinadigan soliq bazasiga pasaytirilgan bir foizlik stavka qo'llanilganda 20,7 mlrd so'm soliq hisoblanadi. Natijada, yakka tartibdagi tadbirkorlar ixtiyorida yiliga o'rtacha hisobda 62,2 mlrd so'm qo'shimcha daromad qolishiga erishiladi. Demak, tadbirkorlik faoliyatida soliq yukini keskin kamaytirishga qaratilgan rag'batlantiruvchi soliq siyosati aholining tadbirkorlik faolligini oshirish, ularni faoliyatga keng jalb qilish va bandligini ta'minlash orqali daromad manbalari va miqdorlarini ko'paytirish, kambag'allik darajasini qisqartirishga xizmat qiladi. Bu esa "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilab olinga 2030-yilga qadar "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish, ishsizlik darajasini 4 %gacha qisqartirish va "Mutlaq kambag'allikka" barham berish kabi maqsadlarga erishish imkonini beradi.

<sup>50</sup> Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.





Milliy statistika qo‘mitasi va Jahon banki kuzatuvlariga ko‘ra, keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida, mamlakatda 2025-yil yakunlari bo‘yicha kambag‘allik darajasi 3,1 foiz punktga qisqarib, 5,8 foizni tashkil etdi. Bir yilda 302 ming ehtiyojmand oila kambag‘allikdan chiqarildi.

**1-jadval**
**Kambag‘allik darajasi, foizda<sup>51</sup>**

№	Hududlar	Yillar bo‘yicha, foizda				
		2021	2022	2023	2024	2025
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	20,8	19,9	13,6	10,8	6,6
2	Andijon viloyati	19,3	17,4	11,9	9,5	6,1
3	Buxoro viloyati	14,5	11,9	11,8	8,7	6
4	Jizzax viloyati	21,1	16,1	14,2	11,8	5,8
5	Qashqadaryo viloyati	17,9	12,7	11,5	9,6	6,5
6	Navoiy viloyati	4,7	9,2	7,6	5,7	4,2
7	Namangan viloyati	14,1	12,8	10,4	7,6	5,5
8	Samarqand viloyati	18,2	14	10,5	7,5	6,1
9	Surxondaryo viloyati	13,3	13,7	10,6	9,3	6,1
10	Sirdaryo viloyati	30,5	19,5	13,8	11,3	6,2
11	Toshkent viloyati	22,7	14,5	10,2	8	5,3
12	Farg‘ona viloyati	3,9	11,6	10,1	8,6	5,7
13	Xorazm viloyati	19,9	19,1	14,1	11,9	6,7
14	Toshkent shahri	8,1	8,5	7,9	7,3	3,5
<b>Respublikasi bo‘yicha</b>		<b>17</b>	<b>14,1</b>	<b>11</b>	<b>8,9</b>	<b>5,8</b>

Kambag‘allik darajasining pasayishi respublikaning barcha hududlarida kuzatilib, eng yuqori ko‘rsatkich Jizzax (11,8% dan 5,8% gacha), Xorazm (11,9% dan 6,7% gacha), Sirdaryo (11,3% dan 6,2% gacha), Qoraqalpog‘iston (10,8% dan 6,6% gacha) hamda Toshkent shahrida (7,3% dan 3,5% gacha) qayd etildi.

Kambag‘allikni qisqartirishning eng samarali usullaridan yana biri aholining kambag‘al qismini ish bilan ta‘minlash hisoblanadi. Biroq ushbu jarayonda bir qator iqtisodiy-ijtimoiy mummolar, jumladan: aholining ushbu toifasida kasbiy malaka va ko‘nikmalarning yetishmasligi, ta‘lim darajasining pastligi, joylarda ish o‘rinlarining yetarli emasligi, norasmiy bandlikning yuqoriligi, hududiy va infratuzilmaviy muammolar mavjud. Bu muammolarni hal etishda ushbu toifadagi aholini o‘qitish, qayta tayyorlash, kasb-hunarga o‘rgatish, norasmiy bandlikni qisqartirish, rasmiy ish o‘rinlarini ko‘paytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratuvchi xo‘jalik yurutuvchi subyektarni moliyaviy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq chora tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi. Eng samarali yo‘llaridan biri esa ish beruvchilar uchun rasmiy bandlikni rag‘batlantiruvchi soliq va boshqa imtiyozlarni joriy etishdir. Sababi yangi xodimlarni, ayniqsa ma‘lumoti o‘rta yoki o‘rta maxsus, kasbiy malakasi va tajribasi yetarli bo‘lmagan shaxslarni ishqa qabul qilish mehnat unumdorligiga ta‘sir qilishi bilan birgalikda ish beruvchilar uchun qo‘shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi. Jumladan, ish beruvchilarda yangi xodimlar uchun ish haqi bilan birga, ijtimoiy soliq to‘lash majburiyatini ham keltirib chiqaradi. Daromadi cheklangan ish beruvchilar uchun qo‘shimcha soliq yukining mavjudligi yangi ish o‘rinlari yaratishni sekinlashtiradi. Hatto ayrim ish beruvchilar soliq xarajatlarini kamaytirish maqsadida xodimlarni norasmiy ishlatishga urinishi mumkin bo‘ladi. Shu sababli mazkur xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan soliq imtiyozlari ish beruvchilarning yangi xodimlarni ishga qabul qilishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Shunga ko‘ra, aholining kambag‘al toifasini ish bilan ta‘minlash, ularni kambag‘allikdan chiqarish uchun yuqori va barqaror daromadga ega bo‘lishlarini ta‘minlash maqsadida ish beruvchilarga mazkur toifadagi shaxslarni ishga qabul qilishini rag‘batlantirish

<sup>51</sup> Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari





maqsadida, ishga qabul qilingan ushbu toifadagi xodimlarga to‘lanadigan mehnat haqi xarajatlaridan uch yil davomida 1 foizlik miqdorda ijtimoiy soliq to‘lash imkoniyatini berish taklif qilindi. Natijada, Prezidentning 2024-yil 23-sentyabrdagi Farmoni bilan 2025-yil 1-yanvardan boshlab ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalar a‘zolarini ishga qabul qilgan korxonalar uchun ijtimoiy soliq stavkasi uch yil muddatga 1 foiz etib belgilandi.



**3-rasm. Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalar a‘zolarini ishga qabul qilgan korxonalar uchun ijtimoiy soliqni 1 foiz qo‘llashga doir imtiyozlar tahlili<sup>52</sup>**

Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalar a‘zolarini kambag‘allikdan chiqish uchun yuqori va barqaror daromadga ega bo‘lishlarini ta‘minlash maqsadida ushbu imtiyoz mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,5 baravaridan kam bo‘lmagan ish haqi to‘langan xodimlarga nisbatan qo‘llaniladi. 3-rasm. Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar tahliliga ko‘ra, ushbu imtiyozning amaliyotda qo‘llanilishi natijasida 2025-yilda kambag‘al oilalarning ishga qabul qilingan 2 368 nafar a‘zosiga to‘langan 449,2 mlrd so‘m ish haqi bo‘yicha 17 mlrd so‘mdan ortiq ijtimoiy soliq ish beruvchilar ixtiyorida imtiyoz sifatida qoldirilgan.

Yuqoridagilardan, ko‘rinib turibdiki, ish beruvchilar uchun ijtimoiy soliq stavkasining 1 foizgacha pasaytirilishi ehtiyojmand aholi bandligini ta‘minlashning institutsional mexanizmini yaratdi. Natijada kambag‘al oilalar a‘zolari doimiy ish o‘rinlariga ega bo‘lib, davlat tomonidan beriladigan ijtimoiy yordamga qaramlik darajasi kamaymoqda.

### Xulosa

Yuqoridagi tahlil va natijalar muhokanasidan kelib chiqib aytish mumkinki, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, aholi farovonligini oshirish va kambag‘allik darajasini pasaytirishda soliq siyosatining rag‘batlantiruvchi funksiyasidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish hamda ehtiyojmand aholi qatlamlari bandligini rag‘batlantirishga qaratilgan soliq mexanizmlarining takomillashtirilishi mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Izlanish va tahlillar davomida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o‘rni ortib borayotgani aniqlandi. Shu bilan birga, kuzatilmaydigan iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 34,8 foizni tashkil etayotgani iqtisodiy faoliyatning sezilarli qismi hali ham rasmiy sektor doirasidan tashqarida amalga oshirilayotganligini ko‘rsatadi. Mazkur holat tadbirkorlik faoliyatini legallashtirish va biznesni soyadan chiqarishga qaratilgan qo‘shimcha iqtisodiy rag‘batlarni joriy etish zarurligini tasdiqlaydi. Shuning bilan birgalikda, yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish tizimi tahlili shuni ko‘rsatdiki, aylanmadan olinadigan soliqning 4 foizlik stavkasi ayrim faoliyat turlari uchun nisbatan yuqori soliq yukini yuzaga keltirgan.

<sup>52</sup> Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.





Ayniqsa, xarajatlar ulushi katta bo‘lgan savdo, vositachilik va xizmat ko‘rsatish faoliyatlarida soliqning aylanmadan undirilishi sof daromadning kamayishiga sabab bo‘lgan. Bundan tashqari, aylanma hajmining ortishi bilan soliq summasining keskin ko‘payishi ayrim tadbirkorlarda tushumlarni yashirish, hisob-kitoblarni rasmiylashtirmaslik yoki faoliyatning bir qismini norasmiy shaklda amalga oshirish kabi salbiy holatlarni yuzaga keltirishi mumkinligi aniqlandi. Shu munosabat bilan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasini 4 foizdan 1 foizga pasaytirish bo‘yicha ilgari surilgan taklifning iqtisodiy asoslari ochib berildi. Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2025-yilda aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchi 312,4 ming nafar yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi asoslandi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, soliq stavkasining pasaytirilishi natijasida tadbirkorlar ixtiyorida yiliga o‘rtacha 62,2 mlrd so‘m qo‘shimcha mablag‘ qoladi. Bu mablag‘lar biznes faoliyatini kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, ishlab chiqarish va xizmatlar hajmini oshirish hamda fuqarolarning daromadlarini ko‘paytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qonuniy faoliyat yuritishning iqtisodiy jozibadorligi ortishi hisobiga norasmiy iqtisodiyot ulushining qisqarishi uchun qo‘shimcha sharoit yaratiladi.

Izlanishning ikkinchi muhim yo‘nalishi kambag‘allikni qisqartirishda bandlik siyosati va soliq rag‘batlarining o‘rnini baholashga qaratildi. Tahlillar mamlakatimizda kambag‘allik darajasi 2021-yildagi 17 foizdan 2025-yilda 5,8 foizgacha pasayganligini ko‘rsatdi. Ushbu natija iqtisodiy islohotlar, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlari va aholini ish bilan ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning samarali natijasi hisoblanadi. Biroq ayrim hududlarda kambag‘allik darajasining saqlanib qolayotgani ushbu yo‘nalishdagi ishlarni izchil davom ettirish zarurligini ko‘rsatadi.

Maqolada ehtiyojmand aholi vakillarini ishga qabul qilayotgan korxonalar uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash taklifining amaliy samaradorligi ham tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari ushbu mexanizm ish beruvchilarning mehnat bilan bog‘liq xarajatlarini kamaytirishi, rasmiy ish o‘rinlari yaratishni rag‘batlantirishi va kambag‘al oilalar a‘zolarining mehnat bozoriga integratsiyalashuvini kuchaytirishini ko‘rsatdi. Amaliy ma‘lumotlarga ko‘ra, 2025-yilda ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalarning 2 368 nafar a‘zosi ishga qabul qilingan bo‘lib, ularga to‘langan 449,2 mlrd so‘m ish haqi bo‘yicha 17 mlrd so‘mdan ortiq ijtimoiy soliq summasi korxonalar ixtiyorida imtiyoz sifatida qoldirilgan. Mazkur holat soliq imtiyozlarining nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy samara berayotganini ham tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini rasmiy iqtisodiy faoliyatga jalb qilish, yangi ish o‘rinlari yaratishni rag‘batlantirish va ehtiyojmand qatlamlarning bandligini qo‘llab-quvvatlash aholi daromadlarini oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirishning samarali instrumentlari ekanligini ko‘rsatdi. Kelgusida soliq yukini maqbullashtirish, maqsadli soliq imtiyozlarini qo‘llash, norasmiy iqtisodiyotni qisqartirishga xizmat qiluvchi rag‘batlarni kengaytirish va bandlikka yo‘naltirilgan soliq siyosatini takomillashtirish orqali aholi daromadlarini oshirish va mutlaq kambag‘allikka barham berish maqsadlariga erishish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2025-yil 27-dekabr, № 274 (9169).
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. <https://lex.uz/docs/4674902>
3. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda “Soliq va budget siyosatining 2026-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1108-son Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 17-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-





21-son Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi PF-143-son Farmoni.

6. Qiyosov Sh.U. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish 08.00.07 –Moliya, pul muomalasi va kredit iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, T.: 2019.

7. Теневая экономика и экономическая безопасность государства : учеб. пособие / В.И. Авдийский, ВА Дадалко, Н.Г. Синявский. - М. : ИНФРА-М, 2019. - 538 с.

8. Abdurahmanov X.X., Arabov N.U., Xolmuxamedov M.M. Aholi daromadlari va turmush sifati: – T: Ilm Ziyο, 2014. 256 b.

9. Gadoyev E.F. Soliqqa tortish tartibtaomillarini takomillashtirish tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning muhim omili. // Iqtisod va moliya. Ekonomika i finansы. 2015, №1, 30-37- b

10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. <https://siat.stat.uz>

